

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**TO'RAYEVA UMRINISO RAXMATOVNA  
QODIROVA RO'ZIGUL SADULLOYEVNA**

**“MUTOLAA MADANIYATI VA IFODALI O'QISH”**

**fanidan**

**MUSTAQIL TA'LIM UCHUN METODIK TAVSIYALAR VA  
USLUBIY KO'RSATMA**

**BUXORO – 2021**

Mas'ul muharrir:



L.F.Sharipova filologiya fanlari  
doktori,dotsent

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari doktori, professor  
D.S.O'rayeva  
Filologiya fanlari falsafa doktori,  
N.Y.O'roqova

### Annotatsiya

“Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish” fanidan tuzilgan mustaqil ta'lim uchun tavsiyalar va uslubiy ko'rsatma talabalarga mazkur fanning mazmun-mohiyatini to'liq o'zlashtirishga, mustaqil ravishda asarlarni chuqurroq idrok etish, vaznini bilish, poetikasini anglash malakasini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, uslubiy ko'rsatmadan filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek) ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrilar, tadqiqotchilar va qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Uslubiy ko'rsatma O'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2021-yil 28-avgustdagi 1-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va fakultet Kengashi muhokamasiga tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri:



H.P.Eshonqulov

Uslubiy ko'rsatma Filologiya fakulteti Kengashining 2021-yil 29-avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilib, o'qayotganlar uchun tavsiya qilindi.

Fakultet dekani



D.Z.Rajabov

## KIRISH

**Mustaqil ta'lim** – ma'lum fandan o'quv dasturida belgilangan, ayni damda talaba tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, o'zlashtirish darajasini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'lim shakllaridan biri bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi. Talabalarga mustaqil ish(ta'lim)ni bajarish yuzasidan kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan uslubiy tavsiyalar beriladi. Fanning eng asosiy xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ta'lim turlari rang-barang va turli elektron ko'rinishlarda fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi.

**Mustaqil ta'lim** fanni chuqurroq o'zlashtirishga, mustaqil bilim olish va ijodiy tafakkur qilishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv materiallarini ishlab chiqish va tatbiq etish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqil ta'lim tizimi o'quv materiallari talabalarning fanga tegishli faoliyat usuli bo'yicha nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi topshiriqlarni qamrab olishi kerak.

### **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

“Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish” fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va mutolaa ssam'ati, nutq madaniyati asoslari borasida ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, fan o'qituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shintcha adabiyotlarni o'rganib, internet saytlaridan foydalanib, referatlar va ilmiy nta'ruzalar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Mustaqil ishni tayyorlashda nutq madaniyatiga doir fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan mavzularini o'rganish; tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish; kompyuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha referat va taqdimotlar tayyorlash;
- o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to'plamlarni chuqur o'rganish;
- interaktiv va muammoli o'qitish jarayonida faol qatnashish;

**I. MTning yozma/bosma shakli** - o`qituvchi(nazoratchi) tomonidan bosma, tasdiqlangan va fan dasturiga kiritilgan bosma(nashr etilgan) mustaqil ta`lim topshiriqlarini talaba tomonidan yozma bajarib topshiradigan ko`rinishi.

**II. MTning og`zaki shakli** – mustaqil ta`lim topshiriqlarining o`qituvchi (nazoratchi) tomonidan bosma shaklda bayon etilgan asosiy, tushuntiruvchi, amaliy topshiriqlarning og`zaki shaklda topshirilishi.

**III. Mtning elektron shakli** – mustaqil ta`lim topshiriqlarining o`qituvchi (nazoratchi) tomonidan bosma shaklda bayon etilgan asosiy, tushuntiruvchi, amaliy matnlarning ovozli elektron versiyasi (kompyuter orqali bajariladi va nazorat qilinadi) talaba tomonidan bajarib topshiradigan ko`rinishi.

#### **I. MTning yozma/bosma shaklidagi ko`rinishlari:**

**I.1. Aniq javobni talab etuvchi topshiriqlar:** referat shaklida (7-10-bet hajmida) yoziladi.

##### **I.2. Ijodiy topshiriqlar:**

a) berilgan mavzuga oid misol topish (izoh: mavzuni tushungan talaba misol keltira oladi).

b) variant asosida tanlangan mikromatnni g`oyaviy-badiiy, shakliy tahlil qilish.

**I.3. Grafik mustaqil topshiriqlar:** jadval, chizma, diagramma, slayd asosida mavzuni yoritish.

Bunday topshiriqlar talabanning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo`naltirilgan bo`ladi.

#### **MT uchun namunaviy dasturda tavsiya etilgan mavzular asosida yuqoridagi uch shakl uchun mavzular.**

**I.1. Aniq javobni talab etuvchi topshiriqlar:** referat shaklida (garchi referatning hajmi belgilangan bo`lsa-da, javob matni 5-7 va undan ko`proq hajmda bo`lsa ham qabul qilinadi. Asosiysi, mavzu mohiyati ochilishi zarur. Qayerdandir ko`chirib tashlamasligi uchun ma`ruzani o`qib turib, mavzuni o`z jumalari asosida yoritishi lozim. Bunday paytda talaba mavzuni o`zlashtirishiga erishamiz. Uning savodli yozish ko`nikmasi rivojlanadi, yozma nutqi sayqal topadi, maqola yozishga o`rganadi ) yoziladi.